


Ходимлар базасини шакллантириш


Ходимлар базасини яратиш

HEMIS ахборот тизимида ОТМда фаолият олиб бораётган ходимлар ва профессор-ўқитувчилар базасини шакллантириш тизимнинг **Xodimlar / Xodimlar bazasi** менюси орқали амалга оширилади (1-расм).



1-расм. Ходим қўшиш

Ходимни яратиш учун **+Xodim qo'shish** тугмасини танланг. Натижада ходим маълумотларини киритиш ойнаси пайдо бўлади (2-расм).



2-расм. Ходимни киритиш ойнаси

Ушбу ойнада ходимнинг шахсий маълумотлари киритилади, бунда:

- **Fuqarolik** майдонидан ходимнинг фуқаролигини (Ўзбекистон Республикаси фуқароси, хорижий давлат фуқароси, фуқаролиги йўқ шахс – ушбу маълумотлардан моси танланади) танланг;
- **Pasport raqami** майдонига ходимнинг паспорт серияси ва рақамини киритинг;
- **JSHPR-kod** майдонига ходимга тегишли бўлган 14 хонали сондан иборат жисмоний шахс персонал рақамини киритинг (жисмоний шахс персонал рақами ходимнинг паспортдан олиб киритилади, 3-расм);

HEMIS OTM | O'zbekcha | JAMSHID ELOV
Kadrlar bo'limi

Asosiy / Xodimlar bazasi / AKMURADOV BAXTIYOR BERDIYEVICH | Xodimni o'zgartirish

Fuqarolik
Fuqaroligi yo'q shaxslar

Pasport raqami
AA000001

JShPR-kod Bu qanday kod?
34534564356345

Rasm

Familiya
AKMURADOV

Ismi
BAXTIYOR

Otasining ismi
BERDIYEVICH

Tug'ilgan sana
1991-01-01

Jins
Erkak

Uy manzili
Amir temur 108-0-0

Mutaxassislik
Axborot texnologiyalari

Ilmiy daraja
Darajasiz

Ilmiy unvon
Unvonsiz

Ishga kirgan yili
2019

Email
ass@gmail.com

Telefon
+998 00 000-00-00

Saqlash

4-расм. Ходим маълумотларини шакллантириш

SAQLASH tugmasini bosilgandan сўнг ходим тўғрисидаги маълумотлар сақланади (5-расм).

HEMIS OTM | O'zbekcha | JAMSHID ELOV
Kadrlar bo'limi

Asosiy / Xodimlar bazasi

Xodim qo'shish | Ism / Pasport / Xodim ID bo'yicha qidirish | Eksport xodim


#	ID raqami	Familiya *	Rol	Tug'ilgan sana	Pasport raqami	O'zgartirilgan	Ish soni	Faol
1	9991611001	PARSIYEV SAIDAXAT SOLIXODJAEVICH	Kafedra mudiri, O'qituvchi	30-10-1958	AA3254234	09.07.2021 21:33:50	1	🟢
2	9991611002	FAMILIYATESTBIR ISMTESTBIR OTASITESTBIR	Dekan, Doktorantura bo'limi, Ilmiy bo'lim, Kadrlar bo'limi, Kafedra mudiri, Kichik Admin, Marketing, O'qituvchi, O'quv bo'limi, Rahbariyat, Super Administrator	21-02-2021	aa1234567	08.07.2021 22:42:06	2	🟢
3	9991811002	ELOV JAMSHID BEKMURADOVICH	Buxgalteriya, Dekan, Doktorantura bo'limi, Ilmiy bo'lim, Kadrlar bo'limi, Kafedra mudiri, Marketing, Moliya-nazorat, O'qituvchi, O'quv bo'limi, Rahbariyat, Super Administrator	01-04-1985	AC3452345	08.07.2021 13:02:38	4	🟢
4	9991911007	ERGASHEV ERGASH XOLIQOVICH	Dekan, O'quv bo'limi	10-03-1971	AA1232123	08.07.2021 22:42:06	2	🟢
5	9991911008	ZARMAISOV ELBEK MAMATQULOVICH	O'qituvchi	30-05-1990	AC3245324	08.07.2021 22:42:06	1	🟢

5-расм. Ходим маълумотларини кўриш ойнаси

Юқорида кўрсатилган кетма-кетлик асосида ОТМнинг барча ходимларини шакллантирилади.


Ходимнинг шахсий маълумотларини таҳрирлаш

Ходим маълумотларини таҳрирлаш **Xodimlar / Xodimlar bazasi** менюси орқали амалга оширилади (5-расм). Ходимлар рўйхатидан керакли ходимнинг **Фамилия, Исми Шарифини** танланг. Натижада экранда ходимга тегишли маълумотлар пайдо бўлади (6-расм).



6-расм. Ходим маълумотларини бошқариш

Ходимнинг шахсий маълумотларини ўзгартириш учун ходимнинг маълумотларини бошқариш ойнасидан **O'zgartirish** тугмаси танланг ва ходимнинг тегишли маълумотлари таҳрирланг сўнгра **Saqlash** тугмаси танланг (7-расм).



7-расм. Ходим маълумотларини таҳрирлаш ойнаси

Ходимнинг шахсий маълумотларини ўчириш

Ходимнинг шахсий маълумотларини ўчириш учун ходим маълумотларини таҳрирлаш ойнасидан (7-расм) **O'chirish** тугмаси босилади

Мухим! Агар тизимда ходим билан боғланган бошқа маълумотлар мавжуд бўлса у ҳолда тизим ходимни ўчиришга рухсат бермайди. Бундай ҳолларда ходимни ўчириш учун дастлаб у билан боғланган бошқа маълумотларни ўчириш зарур бўлади.

Ходим маълумотларини экспорт қилиш

Ходимлар тўғрисидаги маълумотларни **Excel** ойнасига экспорт қилиш учун **Xodimlar / Xodimlar bazasi** менюсини танланг. Натижада экранда ходимлар рўйхати ойнаси очилади (8-расм).

#	ID raqami	Familiya	Rol	Tug'ilgan sana	Pasport raqami	O'zgartirilgan	Ish soni	Faol
1	9992112002	SODIQOVA ORZIGUL SADULLOYEVA		29-03-1988	AA1249666	08.05.2021 14:18:42	0	<input checked="" type="checkbox"/>
2	9991911009	AKMURADOV BAXTIYOR BERDIYEVICH	O'qituvchi	01-01-1991	AA0000001	08.05.2021 14:04:15	1	<input checked="" type="checkbox"/>

8-расм. Маълумотларни Excel ойнасига экспорт қилиш ойнаси

Ушбу ойнадан **Export xodim** тугмасини танланг. Натижада барча ходимлар тўғрисидаги маълумотлар **Excel** ойнасига экспорт қилинади.

Ходимнинг akkauntини яратиш.

Ходимларнинг ахборот тизимидан фойдаланишини ташкил этиш учун ҳар бир ходимнинг тизимдаги akkauntлари яратилади. Ходимнинг логин, парол ва бошқа қайд маълумотлари шакллантириш учун тизимнинг **Xodimlar / Xodimlar bazasi** менюси орқали амалга оширилади (5-расм). Рўйхатдан ходимни танлаш орқали ходимнинг маълумотларини бошқариш ойнасига ўтинг (6-расм) ва **Akkaunt Yaratish** тугмасини танланг. Ҳосил бўлган ойнада ходимнинг akkaunti билан боғлиқ қуйидаги қайд маълумотларини киритинг (9-расм):

- **Login** майдонида фойдаланувчининг логинини шакллантиринг, одатда тизим логини ходимнинг исми-шарифига қараб автоматик шакллантиради, зарурат бўлса ўзгартириш мумкин;
- **To'liq ismi** майдони фойдаланувчининг тўлиқ исми-шарифи, тизим томонидан автоматик тарзда қайд қилинади;
- **Email** майдонига фойдаланувчининг электрон почтасини кириг;
- **Telefon** майдонига фойдаланувчининг телефон рақамини кириг;
- **Holati** майдонида фойдаланувчининг ҳолати белгиланг;
- **Til** майдонидан фойдаланувчи учун интерфейс тилини танланг
- **Parol** майдонига фойдаланувчининг пароли киритинг;
- **Parol tasdig'i** майдонига фойдаланувчининг пароли қайта киритинг;
- **Foydalanuvchi rollari** майдонида актив калити ёрдамида фойдаланувчига тегишли бўлган ролни фаоллаштиринг. Масалан **O'qituvchi** роли;
- **O'gartirish** тугмасини танланг.

Натижада ходимнинг маълумотларни ўзгаради (9-расм).

HEMIS OTM

O'zbekcha

JAMSHID ELOV
Kadrlar bo'limi

OTM strukturasi

Xodimlar bazasi / Xodimlar bazasi / AKMURADOV BAXTIYOR BERDIYEVICH / Akkauntni o'zgartirish

Login
baxtiyor_akmuradov

To'liq ismi*
BAXTIYOR AKMURADOV

Email
ass@gmail.com

Telefon
+998 00 000-00-00

Holati
Ochiq

Til
O'zbekcha

Parolni o'zgartirish

Ochirish O'zgartirish

Foydalanuvchi rollari

Nomi*	Kod	Active
Dekan	dean	<input type="checkbox"/>
Kafedra mudiri	department	<input type="checkbox"/>
O'qituvchi	teacher	<input checked="" type="checkbox"/>
Kadrlar bo'limi	staff	<input type="checkbox"/>

9-расм. Ходимнинг akkauntини яратиш ойнаси

Ходимни akkauntини яратиш ойнасидан ходимнинг ролини ҳам белгилаб кетинг, масалан ўқитувчи.

Эслатма! **Foydalanuvchi rollari** қисмида фойдаланувчига бир вақтни ўзида битта ёки бир нечта ролларни бериш мумкин ёки аксинча барча ролларни ўчириб қўйиши мумкин.

Ходимнинг akkauntини таҳрирлаш

Ходимнинг akkauntини таҳрирлаш учун 9-расмда келтирилган ходим akkaunti ойнасидан бирор бир таҳрирлашни амалга оширинг ва **O'zgartirish** тугмасини танланг.

Ходимнинг akkauntини ўчириш

Ходимнинг akkauntини ўчириш учун 9-расмда келтирилган ходим akkaunti ойнасидан **O'chirish** тугмасини танланг

Ходимни бўлим бириктириш

Ходимни бўлимга бириктиш **Xodimlar/Xodimlar bazasi** менюси орқали амалга оширилади (5-расм). Ходимлар рўйхатидан ходимни танлаш орқали ходимнинг маълумотларини бошқариш ойнасига ўтинг (10-расм).

HEMIS OTM

O'zbekcha

JAMSHID ELOV
Kadrlar bo'limi

OTM strukturasi

Xodimlar bazasi / Xodimlar bazasi / ABDULLAYEV ALISHER ILXAMOVICH

O'zgartirish Akkauntni o'zgartirish

Rasm

ID raqami
9992011013

Ismi*
ALISHER

Familiya*
ABDULLAYEV

Otasining ismi
ILXAMOVICH

Foydalanuvchi rollari

#	Kafedra / Bo'lim	Stavka	Lavozim	Status
1	Axborot texnologiyalari	1,00 stavka	Stajer-o'qituvchi	Ishlamocda

10-расм. Ходим akkaunti маълумотлари

Ходимни бирор бир бўлимга бириктириш учун 10-расмда келтирилган ойнадан **+Bo'linma** тугмасини танланг. Пайдо бўлган тизим ойнасидаги талаб этилган қуйидаги маълумотларни шакллантиринг (11-расм):

- **Xodim** майдонида фойдаланувчининг тўлиқ исми-шарифи тизим томонидан автоматик тарзда қайд қилинади;
- **Lavozim** майдонидан ходим лавозимини танланг;
- **Kafedra / Bo'lim** майдонидан бўлимни танланг;
- **Xodim turi** майдонидан ходим турини танланг (административ-бошқарув ходим, ўқув-ёрдамчи ва техник ходим, хизмат кўрсатувчи ходим);
- **Mehnat shakli** майдонидан меҳнат шаклини танланг (асосий, ўриндошлик ички, ўриндошлик ташқи, соатбай);
- **Stavka** майдонидан ходим ставкасини танланг (0.25, 0.50, 0.70, 1);
- **Status** майдонидан статусни танланг (ишламоқда, таътилда, хизмат сафарига, бўшаган);
- **Kontrakt raqami** майдонига шартнома рақамини киритинг;
- **Kontrakt sanasi** майдонига шартнома санаси киритинг;

Saqlash тугмаси босилгандан сўнг экранда ходимни бўлимга бириктирилганлик тўғрисидаги маълумот пайдо бўлади бўлади (11-расм).

The screenshot shows the 'HEMIS OTM' interface. The main content area displays a form for assigning an employee to a department. The form fields are as follows:

Field	Value
Xodim	AKMURADOV BAXTIYOR BERDIYEVICH
Lavozim	Bo'lim boshlig'i
Kafedra / Bo'lim	Axborot texnologiyalari
Xodim turi	Administrativ-boshqaruv xodim
Mehnat shakli	Asosiy ish joy
Stavka	1,00 stavka
Status	Ishlamoqda
Kontrakt raqami	2222
Kontrakt sanasi	2021-05-08

At the bottom right of the form, there are two buttons: 'O'chirish' (red) and 'Saqlash' (blue). Below the form, there is a section for 'Ma'lumot sarlavhasi' (Information title) with the value 'Bo'lim boshlig'i (AKMURADOV BAXTIYOR BERDIYEVICH)'. The 'Sinxronizatsiya statusi' (Synchronization status) is 'Aktual' (Actual). The 'Sinxronlash sanasi' (Synchronization date) is '08.05.2021 17:33:01'. A 'Ma'lumotlarni tekshirish' (Check information) button is located at the bottom center.

11-расм. Ходимни бўлимга бириктириш ойнаси

Ходим маълумотларини синхронизация статусини текшириш учун **Malumotlarni tekshirish** тугмаси танланади.

Ходимни бўлимга бириктириш маълумотини тахрирлаш


Ходимни бўлимга бириктириш маълумотини тахрирлаш учун 11-расмда келтирилган ойнадан бирор бир тахрирлашни амалга оширинг ва **Saqlash** тугмасини танланг

Ходимни бўлимга бириктириш маълумотини ўчириш

Ходимни бўлимга бириктириш маълумотини ўчириш учун 11-расмда келтирилган ойнадан ва **O'chirish** тугмасини танланг

Ходимни кафедрага бириктириш

Ходимни кафедрага бириктириш **Xodimlar/Xodimlar bazasi** менюси орқали амалга оширилади (5-расм). Ходимлар рўйхатидан ходимни танлаш орқали ходим маълумотларини бошқариш ойнасига ўтинг (12-расм).



12-расм. Ходим akkaунти маълумотлари

Ходимни кафедрага бириктириш учун **+Kafedra** тугмасини танланг. Пайдо бўлган тизим ойнасидаги талаб этилган куйидаги маълумотларни киритинг (14-расм):

- **Xodim** майдонида фойдаланувчининг тўлиқ исми-шарифи тизим томонидан автоматик тарзда қайд қилинади;
- **Lavozim** майдонидан ходим лавозимини танланг (стажёр ўқитувчи, ассистент, катта ўқитувчи, доцент, профессор, кафедра мудири);
- **Kafedra / Bo'lim** майдонидан кафедра номини танланг;
- **Xodim turi** майдонидаги маълумот тизим томонидан автоматик тарзда қайд этилади яъни профессор-ўқитувчи ходим;
- **Mehnat shakli** майдонидан меҳнат шаклини танланг (асосий, ўриндошлик ички, ўриндошлик таш қи, соатбай);
- **Stavka** майдонидан ходим ставкасини танланг (0.25, 0.50, 0.70, 1);
- **Status** майдонидан статусни танланг (ишламоқда, таътилда, хизмат сафарда, бўшаган);
- **Kontrakt raqami** майдонига шартнома рақамини киритинг;
- **Kontrakt sanasi** майдонига шартнома санаси киритинг;

Saqlash тугмаси босилгандан сўнг экранда ходимни кафедрага бириктирилганлик тўғрисидаги маълумот намоён бўлади (13-расм).

HEMIS OTM

O'zbekcha

JAMSHID ELOV
Kadrlar bo'limi

OTM strukturasi

Xodimlar

Xodimlar bazasi

Xodimlar ro'yxati

O'qituvchilar ro'yxati

O'qituvchi holati

Xabarlar

Asosiy O'qituvchilar ro'yxati AKMURADOV BAKTIYOR BERDIYEVICH

Xodim: AKMURADOV BAKTIYOR BERDIYEVICH

Lavozim: Katta o'qituvchi

Kafedra / Bo'lim: TBTA va DT

Xodim turi: Professor-o'qituvchi xodim

Mehnat shakli: Asosiy ish joyi

Stavka: 1,00 stavka

Status: Ishlamogda

Kontrakt raqami: 3333

Kontrakt sanasi: 2021-05-08

O'chirish Saqlash

Ma'lumot sarlavhasi	Katta o'qituvchi (AKMURADOV BAKTIYOR BERDIYEVICH)
Sinxronizatsiya statusi	Aktual
Sinxronlash sanasi	08.05.2021 18:08:05

Ma'lumotlarni tekshirish

13-расм. Ходимни кафедрага бириктириш ойнаси

Ходим маълумотларини синхронизация статусини текшириш учун **Malumotlarni tekshirish** тугмасини танланади.

Ходимни кафедрага бириктириш маълумотини тахрирлаш

Ходимни кафедрага бириктириш маълумотини тахрирлаш учун 15-расмда келтирилган ойнадан бирор бир тахрирлашни амалга оширинг ва **Saqlash** тугмасини танланг.

Ходимни кафедрага бириктириш маълумотини ўчириш

Ходимни кафедрага бириктириш маълумотини ўчириш учун 15-расмда келтирилган ойнадан ва **O'chirish** тугмасини танланг

Мухим! Агар маълум сабабларга кўра ушбу ходим ишдан бўшаб бошқа ташкилотга ишга ўтса, ходимга ёки ўқитувчига тегишли маълумотларни ўчириб юбормаслик керак. Сабаби ходим ва ўқитувчи ишлаган даврда у томонидан яратилган маълумотлар ҳам ўчиб кетади. Шунинг учун тизимда бундай ходим ёки ўқитувчини пассив ҳолатга ўтказиш зарур (8-расм).

Ходимга боғланган маълумотлар шаклланган бўлса у холда тизим ходимни бўлимга ёки кафедрага биритириш маълумотларини ўчиришга рухсат бермайди. Бундай ҳолларда ходимни ўчириш учун дастлаб унга боғланган маълумотларни ўчириш зарур.